



**MAKTABGACHA TA'LIM TARBIYALANUVCHILARINI MAKTAB TA'LIMIGA
TAYYORLASHDA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH
TEKNOLOGIYASI**

Ergasheva Sarvinoz

Andijon davlat pedagogika instituti Maktabgacha

ta'lim yo'nalishi 2-bosqich 202-guruh talabasi

Telefon: +998946513634

E-mail: ergashevasarvinoz72gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini maktab ta'limiga tayyorlash hamda ta'lim va tarbiya jarayonlarini xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini qiyosiy tahlil asosida o'rganish ochib berilgan.

Kalit so'zlar: tarbiyachi, tarbiyalanuvchi, maktabgacha ta'lim tashkiloti, ta'lim-tarbiya, islohot, xorijiy tajribalar, barkamol avlod, yetuk shaxs, zamonaviy texnologiyalar, aqliy tarbiya ma'naviyat savod, ilk qadam davlat dasturi.

Аннотация: В статье описана подготовка детей дошкольных образовательных организаций к школьному обучению и исследование воспитательно-воспитательных процессов на основе сравнительного анализа передового опыта зарубежных стран.

Ключевые слова: педагог, воспитанник, дошкольная образовательная организация, воспитание и воспитание, реформа, зарубежный опыт, зрелое



поколение, зрелая личность, современные технологии, интеллектуальное образование, духовная грамотность, государственная программа «Первый шаг».

Abstract: This article describes the preparation of children of preschool education organization for school education and the study of education and training processes based on the comparative analysis of the best practices of foreign countries.

Key words: teacher, student, preschool education organization, education and training, reform, foreign experiences, mature generation, mature person, modern technologies, intellectual education, spiritual literacy, first step state program.

KIRISH

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimi uzluksiz ta'lim tizimining dastlabki va eng asosiy bosqichi hisoblanadi. Ko'p yillik ilmiy kuzatish va tadqiqodlar shuni ko'rsatadiki, inson umri davomida oladigan barcha informatsiyaning 70% ini 5 yoshgacha bo'lgan davrda olar ekan.¹ Bolalarning bilimli, sog'lom, barkamol shaxs bo'lib yetishishida maktabgacha ta'limj tashkiloti muhim o'rin egallaydi. Bolaning ongini rivojlanishini 5-7 yosh deb oladigan bo'lsak, aynan shu davrda bola ijtimoiy jihatdan moslashadi. Ayni ushbu davrda bolaga to'g'ri tarbiya berish orqali yetuk inson bo'lishini ta'minlashimiz mumkin. Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etish quyidagi tamoyillar asosida amalga oshiriladi.

-Bolalikni o'ziga xos qadriyat ekanligini tan olish.

-Bolaning huquqi, individualligi va rivojlanish imkoniyatlarini hisobga olish.

-Har bir bolaning har tomonlama rivojlanishi va farovonligini ta'minlash

¹ Karimov I.A. (2008) Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. T.: "Ma'naviyat", 33-b.



- Bolaning sogʻligʻini saqlash, mustahkamlash va xavfsiz muhitni ta'minlash.
- Oʻyin orqali ta'lim olish va rivojlantirish.
- MTTning oila, mahalla, maktab bilan hamkorligi.
- Milliy, tarixiy va madaniy anʼanalar, maʼnaviy boyliklarni tan olish va boshqa xalqlar madaniyatiga hurmatda boʻlish.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim va tarbiya jarayonining maqsadi bolaning tayanch kompetensiyalari va rivojlanish sohalarining kompetensiyalarini shakllantirish uchun shart-sharoitlarni yaratishdir.²

Bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohotlar oʻz mevasini berishi koʻzda tutilgan. Davlatimizdagi bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotiga qabul qilish qamrovi ortib bormoqda. Oʻzbekistonda maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti belgilab qoʻyilgan.

Maktabgacha ta'lim — maktabgacha yoshdagi bolalar qiziqishi, iqtidori, individual ruhiy va jismoniy xususiyatlari, madaniy ehtiyojlarini inobatga olgan holda hamda bolada maʼnaviy meʼyorlarning shakllanishi, hayotiy va ijtimoiy tajriba egallanishini koʻzda tutgan har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan yaxlit jarayon³ hisoblanadi. Oʻzbekiston respublikasi Maktabgacha ta'lim va tarbiya toʻgʻrisidagi qonunning 17-moddasiga muvofiq umumiy turdagi maktabgacha ta'lim tashkiloti; koʻp tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkiloti;

inklyuziv guruhlariga ega maktabgacha ta'lim tashkiloti;

² “Ilk qadam” davlat oʻquv dasturi. T.: “Takomillashtirilgan ikkinchi nashr”, 12-b.

³ Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 22.12.2020 yildagi 802-son



Qo'shma turdagi maktabgacha ta'lim tashkiloti⁴ kabilarga bo'linadi.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimida xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini o'rganish yuzasidan alohida adabiyotlar, tadqiqod ishlari juda kam, bu boladagi manbalarning faqatgina elektron resurslari mavjud bo'lib, ularni ham internetning turli veb-saytlaridan topib, tarjima qilib o'rganish mumkin. Maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qabul turli davlatlarda turlichadir.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Maktabgacha ta'lim tashkilotiga qabul yoshi

O'zbekiston	Amerika	Germaniya	Yaponiya	Xitoy	Finlandiya
1 yosh	6 hafta	4 oylik	3 yosh	3 yosh	6 oylik

O 'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunining

ta'lim turlari xususidagi 10-moddasida shunday deyiladi:

— Maktabgacha ta'lim. Uch yoshdan boshlab, olti-yetti yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida va mulkchilik ko'rinishlaridan qat'i nazar, boshqa ta'lim tashkilotlarida olib boriladi.⁵ O'zbekiston respublikasi “maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida”gi qonunning 34-moddasiga ko'ra bolalar yoshlariga qarab guruhlarga ajratilgan. Jumladan ilk rivojlanish guruhi (bir yoshdan uch yoshgacha), o'rta guruh(to'rt yoshdan besh yoshgacha), katta guruh(besh yoshdan olti yoshgacha), tayyorlov guruh (olti yoshdan yetti yoshgacha).

⁴ O'zbekiston respublikasining qonuni maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidaqonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 22-oktabrda qabul qilingan

⁵ Hasanboyeva O.U, Tojiyeva M.X, Toshpo'Latova Sh.K, Pirmuhamedova M.M, Akbarova R. T, Nurmatova, I.M, Qayumova N.M, Jamilova N.M, Sariboyev X, Kulay I.A. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. T.: - Ilm ziyo. 2011.- 27-b.



Amerikada uzoq tug'ruq ta'tillari yo'q, shuning uchun chaqaloqlar maktabgacha ta'lim tashkilotiga juda erta, ba'zan olti haftadan boshlab yuboriladi. Bundan tashqari bolalar bog'chalari va ularga bo'linish yoq va besh yoshdan boshlab bola maktabda maxsus guruhga yuborilishi kerak

Germaniyada ota-onalar farzandlarini 4 oylikdan boshlab bog'chaga berishga majburdir. Ko'pincha nemis oilalari farzandlarini ancha erta bog'chaga beradilar. Germaniyada maktabgacha ta'limning 3 xil turi mavjud bo'lib, ular rang-barangligi bilan boshqa davlatlarnikidan ajralib turadi.

Yaponiya, Xitoy davlatlarida bolalar asosan 3 yoshdan bog'chaga qabul qilinadi. Faqatgina juda majbur bo'lgan oilalar farzandlarini bolalarga qarash markazlariga berishi mumkin. Yaponiyada bolalar yaslisiga faqat ota-onasi ishlaydigan bolalar qabul qilinadi.

Finlandiyada ota-onalar xohishiga ko'ra bolalar uch yoshgacha oila davrasida qolishi mumkin, ammo aksariyat hollarda ota-onalar mehnat faoliyati bilan band bo'lganligi sababli farzandlarini erta yoshdan maktabgacha ta'lim tashkilotiga berishadi. Finlandiya maktabgacha ta'lim tizimi 6 oydan 6 yoshgacha bo'lgan bolalarni qabul qiladi.

Davlatimizda Maktabgacha ta'lim tashkilotiga bolalar 1 yoshdan boshlab qabul qilinadi. Farzandi 3 yoshga to'lmagan onalarga mehnat qonunchiligida imtiyozlar belgilangan.

Ta'lim sohasiga e'tibor kuchaygan bir vaqtda bugungi kun ta'limining eng asosiy innovatsion metodi va istiqbolli texnologiyasi bu STEAM texnologiyasidir. Ta'lim sifatini oshirish maqsadida ushbu xorijiy tajribadab foydalanib kelinmoqda. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida STEAM texnologiyasi asosida ta'limni tashkil etilishi, kelajakda bolaning innovatsion tadqiqodlarni mustaqil ravishda amalga oshira olishiga turtki bo'ladi. STEAM dasturining samaradorligini yanada kuchaytirish maqsadida ta'lim tashkilotlarida bolalarni



ta'limga, ixtirolarga bevosita jalb etuvchi maxsus tajriba xonalari, to'garaklar, ijodiy o'yinlar, kommunikativ texnologiyalar asosida rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Uzluksiz ta'lim tizimida xorijiy tajribalardan o'rganar ekanmiz, har bir davlat o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligiga ishinch hosil qilamiz. Bular qaysidir jihatdan o'sha mamlakatning rivojlanishiga ham xizmat qilishini ko'rishimiz mumkin. Yevropa mamlakatlarida bola tarbiyasiga asosan ota-ona mas'ul bo'lsa, Xitoyda bu davlat zimmasidadir.

XULOSA

Xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalari ularning davlatlarini rivojlanishiga xizmat qilib kelmoqda. Xitoyliklarning "Bir yilni ko'zlasangiz sholi eking, ellik yilni ko'zlasangiz daraxt eking, yuz yilni ko'zlasangiz farzand tarbiyalang" dehan hikmatidan bugungi kunda zamonaviy davlatlarning deyarli barchasi samarali foydalanmoqda. Xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalaridan unumli foydalanish orqali milliy ta'lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish davr talabi hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim va tarbiya shu avlodni ta'limning ilk bo'g'inidan savodli va tarbiyali bo'lishini ta'minlashga xizmat qilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. (2008) Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 33-b.
2. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. T.: Takomillashtirilgan ikkinchi nashr, 12-b.
3. [O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 22.12.2020 yildagi 802-son](#)
4. O'zbekiston respublikasining qonuni maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 22-oktabrda qabul qilingan
5. Hasanboyeva O.U, Tojiyeva M.X, Toshpo'Latova Sh.K, Pirmuhamedova M.M, Akbarova R. T, Nurmatova, I.M, Qayumova N.M, Jamilova N.M, Sariboyev X, Kulay I.A. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. T.: - Ilm ziyo. 2011, 27-b.